




## Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
sanoat ishlab chiqarish hajmi,  
mlrd.so'm, o'zgarish sur'ati, % da



- B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C - Ishlab chiqaradigan sanoat
- D - Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar oyida viloyatimiz korxonalarini tomonidan 4 075,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 101,1% ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 78,1 % ni tashkil etdi.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, %

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 21,3 % ga va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining - 7,0 % ga o'sishi xizmat qildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda - 47,5 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida - 0,9 % ga pasayishi kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, %



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan 2020-yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 540,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining hajmining 13,3 % ini tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoat

2020-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 184,3 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 78,1 % ini tashkil etdi.





## Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2019- yil yanvar oyida - 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 6,0 % (6,3 %), o'rta-quyi texnologiyali - 86,4 % (86,0 %) va quyi texnologiyalisi – 7,3 % (7,3 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 4,2 % (2019- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi - 102,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 78,8 % (2019- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 99,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,8 % (2019-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 96,7 % ), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,2 % (2019-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 92,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 6,2 % (2019- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 94,7 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar	2020- yil yanvar	Farqi, +/-
Portlandsement, ming tonna.	240,0	243,0	3,0
So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak, tonna.	3 129,0	6 004,0	2 875,0
Ammoniy nitrat, ming tonna azot.	24,0	15,5	-8,5
Temir beton, tonna.	3 606,9	1 544,0	-2 062,9
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna.	47,0	44,3	-2,7
Ishlov berilgan suyuq sut, tonna.	89,6	94,1	4,5

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan, portlandsement (2019- yil yanvar oyiga nisbatan 101,3 %), hamda so'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak (1,9 m) mahsulotlarida o'sish ko'rsatkichlari qayd etildi.

Shuningdek, ammoniy nitrat (2019- yilning yanvar oyiga nisbatan 64,6 %) mahsuloti ishlab chiqarish sanoatida pasayishi kuzatildi.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 348,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 8,5 % ni) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar oyida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 21,3 % ga oshganligi kuzatildi.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar	2020- yil yanvar	Farqi +/-
<b>Elektroenergiya,</b> <i>mln. kVt/s</i>	883,3	1 136,9	253,6
<b>Issiqlik energiyasi,</b> <i>ming gkal.</i>	510,9	512,8	1,9



### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari – 3,2 m ga oshganligi kuzatildi, shuningdek, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 28,3 % ga hamda oqava suvlarning shlami 28,7 % ga oshganligi kuzatildi.



Yirik sanoat korxonalarini tomonidan suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sohasidagi bajarilgan ishlar hajmi

	2019- yil yanvar	2020- yil yanvar	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	1 476,1	1 893,3	417,2
Shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	446,5	1 410,4	963,9
Oqava suvlarning shلامي, mln. so'm	1 068,8	1 375,8	307,0



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 232,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 7,3 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 5,7 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yil yanvar oyida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 55,5 % dan 60,6 % gacha kupayganligi qayd etildi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,02 % ni (2019- yil yanvar oyida 0,02 %) ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 32,6 % ni, shuningdek, Xatirchi tumani 14,5 % ni, Karmana tumani 13,7 % ni, Qiziltepa tumani 12,5 % ni hamda Navbahor tumani 7,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (107,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Navoiy shahrida (126,9 %) hamda Karmana tumanida (104,1 %) qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
(2020- yilning yanvar oyida, %)

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2019- yilga nisbatan o'sish, %
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>232,6</b>	<b>100,0</b>	<b>107,3</b>
<b>Navoiy sh.</b>	75,9	32,6	126,9
<b>Zarafshon sh.</b>	13,3	5,7	101,1
<i>tumanlar</i>			
<b>Karmana</b>	31,9	13,7	104,1
<b>Konimex</b>	5,5	2,4	101,4
<b>Qiziltepa</b>	29,0	12,5	91,0
<b>Navbahor</b>	17,9	7,7	101,9
<b>Nurota</b>	16,0	6,9	102,0
<b>Tomdi</b>	2,5	1,1	101,5
<b>Uchquduq</b>	6,9	2,9	101,1
<b>Xatirchi</b>	33,7	14,5	101,0

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 72,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 1,8 % ni tashkil etdi.


**Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2020- yil yanvar, mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, %
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>4 075,9</b>	<b>101,1</b>
<b>Navoiy sh.</b>	<b>3 382,5</b>	<b>102,4</b>
<b>Zarafshon sh.</b>	<b>14,5</b>	<b>86,1</b>
<i>tumanlar</i>		
<b>Karmana</b>	<b>480,1</b>	<b>106,2</b>
<b>Konimex</b>	<b>26,1</b>	<b>124,3</b>
<b>Qiziltepa</b>	<b>62,6</b>	<b>101,1</b>
<b>Navbahor</b>	<b>32,3</b>	<b>104,1</b>
<b>Nurota</b>	<b>21,1</b>	<b>101,4</b>
<b>Tomdi</b>	<b>3,2</b>	<b>102,1</b>
<b>Uchquduq</b>	<b>7,7</b>	<b>103,9</b>
<b>Xatirchi</b>	<b>45,8</b>	<b>100,5</b>





## Shahar va tumanlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi hajmidagi ulushi, %



Viloyatimiz sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Navoiy shahri (Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmning 83,0 %), Karmana (11,8 %), Qiziltepa (1,5 %), Xatirchi (1,1 %), hamda Navbahor (0,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Eng past ko'rsatkich esa Tomdi (0,1 %) hamda Uchquduq (0,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Iste'mol mahsulotlarining eng katta ulushi Navoiy shahrida ishlab chiqarilganligini ta'kidlash lozim (viloyat iste'mol mahsulotlarining 32,6 %), Xatirchi (14,5 %), Karmana (13,7 %), Qiziltepa (12,5 %), Navbahor (7,7 %) va Nurota (6,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.




**Shahar va tumanlar bo'yicha sanoat ishlab  
chiqarish fizik hajm indeksi**  
(2019- yil yanvar oyiga nisbatan, %)

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, Konimex (2019- yil yanvar oyiga nisbatan 124,3 %), Karmana (106,2 %) Uchquduq (103,9 %), Tomdi (102,1 %) Nurota (101,4 %) tumanlarida hamda Navoiy shahrida (102,4 %) ga sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmlarining o'sish sur'ati**  
(2019- yil yanvar oyiga nisbatan, %)


Navoiy shahrida (2019- yil yanvar oyiga nisbatan 126,9 %), Karmana (104,1 %), Nurota (102,0 %), Navbahor (101,9 %), Tomdi (101,5 %), Konimex (101,4 %), Uchquduq (101,1 %) hamda Zarafshon shahrida (101,1 %) iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi.





## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020- yil yanvar oyida, %)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 398,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 9,8 % ni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Navbahor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0%), Nurota (100,0%), Tomdi (100,0%), Xatirchi (100,0%), Uchquduq (99,5%), Qiziltepa (90,1%) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Navoiy shahrida (1,5%), Konimex (22,0%), Karmana (33,4%) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




### Viloyatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlikda (2020- yil 1- fevral holatiga)

Bugungi kunda viloyatimizda 2 893 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 661 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 22,8 %) Navoiy shahriga, 460 tasi (15,9 %) Karmana tumaniga, 380 tasi (13,1 %) Xatirchi tumaniga to'g'ri kelmoqda.



### Viloyatimizda yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda (2020- yil 1- fevral holatiga)





2020- yil yanvar oyida viloyatimizda 72 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, jumladan 22 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari sonidagi ulushi 30,6 %) Xatirchi tumanida, 11 tasi (15,3 %) Karmana tumanida, 13 tasi (18,1 %) Navoiy shahrida, 8 tasi (11,1 %) Zarafshon shahrida hamda 5 tasi (6,9 %) Nurota tumanida tashkil etildi.

**Navoiy viloyati statistika  
boshqarmasining  
sanoat statistikasi bo'limi**

*Tel.: (79) 223-33-29*